



## JADID LUG`ATSHUNOSLIGINING O`ZBEK LUG`ATCHILIGI TARAQQIYOTIDAGI O`RNI

**Matluba Turobova Rahmatullayevna**

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Lingvistika: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada lug'atshunoslik va uning tilshunoslikdagi o'rni hamda jadid lug'atshunosligining o'zbek lug'atchiligi taraqqiyotidagi o'rni xususida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, jadidlar davrida yaratilgan va hozirgi o'zbek tilidagi mavjud lug'atlar bir-biriga qiyoslanib, ular o'rtasidagi kamchilik va yutuqlar qiyosiy tahlil metodi asosida amalga oshiriladi. Lug'atchilik taraqqiyotining shakllanishida jadidchilik lug'atshunosligining ahamiyati katta bo'lib, bugungi kun lug'atshunoslik taraqqiyotini usiz tasavvur qilib bo'lmaydi.*

**Kalit so'zlar:** *lug'atshunoslik, jadid lug'atshunosligi, o'zbek lug'atshunosligi, qiyosiy tahlil, xususiyat.*

## THE ROLE OF MODERN DICTIONARY IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK DICTIONARY

**Matluba Turobova Rahmatullayevna**

*National University of Uzbekistan*

*Linguistics: Uzbek language, 2nd grade master*

**Abstract.** *This article talks about lexicography and its place in linguistics and the role of modern lexicology in the development of Uzbek lexicography. In addition, the existing Uzbek language dictionaries created during the modern era are compared to each other, and the shortcomings and achievements between them are made based on the method of comparative analysis. Modern lexicology is of great importance in the formation of lexicographical development, today's lexicological development cannot be imagined without it.*


**Keywords:** *lexicology, modern lexicology, Uzbek lexicology, comparative analysis, characteristic.*

## РОЛЬ СОВРЕМЕННОГО СЛОВАРЯ В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО СЛОВАРЯ

**Матлуба Турובה Рахматуллаевна**

*Национальный университет Узбекистана*

*Лингвистика: узбекский язык, магистрант 2 ступени*







**Аннотация:** В данной статье говорится о лексикографии и ее месте в языкознании и о роли современной лексикографии в развитии узбекской лексикографии. Кроме того, существующие словари узбекского языка, созданные в современную эпоху, сравниваются между собой, а недостатки и достижения между ними выявляются на основе метода сравнительного анализа. Современная лексикология имеет большое значение в формировании лексикографического развития, сегодняшнее лексикологическое развитие невозможно представить без нее.

**Ключевые слова:** лексикология, современная лексикология, узбекская лексикология, сравнительный анализ, характеристика.

Barchamizga ma'lumki, til inson taraqqiyotining muhim omili sifatida baholanadi. Sababi, asrlarosha shakllangan ushbu aloqa vositasi kishilik jamiyatining yanada rivoj topishida muhim ahamiyat kasb etishi bilan o'rinlidir. Ta'kidlash lozimki, shaxs kamolotida asosiy jihat sifatida rol o'ynovchi ushbu kommunikativ omil lug'atchilik bilan chambarchas holatda rivojlanadi, taraqqiy etadi va o'ladi. Til mavjud ekan, lug'atchilik ham bardavomdir[11].

Lug'atchilik tildagi mavjud barcha so'zlarning umumiy jamlanmasi hisoblanib, uning taraqqiy etishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Asrlar silsilasidan o'tib kelayotgan lug'atchilik qator rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, ulardan biri jadid lug'atchiligi hisoblanadi. Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Is'hoqxon Ibrat, Elbek kabi jadid adabiyotining yetuk vakillari tomonidan yaratilgan lug'at namunalari bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotgan emas[3]. Xususan, o'zining "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi asarlari bilan adabiyotimizda chuqur iz qoldirgan Abdulla Qodiriy lug'atchilik sohasida ham o'zini namoyon qila olganligi bilan barchamizni hayratda qoldiradi. 1934-yilda Qozonda S. Rahmatiy bilan hamkorlikda yaratilgan 2 jildlik 34 ming so'zlikni o'z ichiga oluvchi "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik lug'ati" jadid lug'atshunosligida yaratilgan mukammal lug'at hisoblanib, uning o'ziga xos tarkibi, lug'at uchun so'z tanlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar, so'zlik va unga berilgan maqolalar mualliflar tomonidan anchayin ishlov berilgan hamda ular ustida ijodkorlarning anchayin ter to'kkani ko'rinib turgan haqiqatdir[1]. Yana shuni ham alohida qayd etib o'tish joizki, lug'at o'z ichiga ruscha so'zlar bilan birgalikda sof tarjimadan tashkil topgan o'zbekcha so'zlarni oladi, ya'ni tarjimada qayd etilgan so'zlarning asosiy qismi sof turkiy tilda aks ettirilgan. Ushbu lug'at quyidagi tartibda tuzilgan:





“P” harfida keltirilgan soʻzliklar bilan tanishib chiqamiz:

No	Rus tilidagi talqini	Oʻzbek tilidagi talqini	Imkon qadar soʻzlikning turkiy tillarga yaqin tildagi talqini (yoʻqsa oʻzbek tilidagi keyingi variant)
1	Пересудчик	Gʻiybatchi	Soʻzchin
2	Петрушка	Kashnich	Qoʻgʻursoq
3	Паненка	Oyimqiz	- Bikach; - Qaqajon
4	Паг	Dara	- Uchastka; - Kent
5	Панел	Saltataxta	-
6	Пемза	Yongʻirtosh	-

Bundan tashqari, ushbu lugʻatda ruscha soʻzlik bilan birgalikda uning tarjimasi hamda shevadagi talqini ham mavjud oʻrinlarni kuzatishimiz mumkin:


No	Ruscha soʻzlik	Oʻzbek tilidagi muqobili	Shevadagi muqobili
1	Папа	Ota	Doda
2	Папаша	Dadajon	Ada
3	Патат	-	Shirin kartishka
4	Поднос	Barkash	- Xon; - Laʼli
5	Подушка	Yostiq	- Bolish; - Takya

Demak, A. Qodiriy va S. Rahmatiyalar tomonidan yaratilgan ushbu lugʻat ruscha-oʻzbekcha soʻzliklarni oʻz ichiga olishi bilan birgalikda oʻzga tillardagi muqobillari hamda shevadagi koʻrinishlarini aks ettirishi bilan ham ahamiyatlidir[1]. Taʼkidlash lozimki, bugungi kun oʻzbek lugʻatshunosligi uchun jadidchilik davrida yaratilgan ushbu lugʻatning ahamiyati katta boʻlib, bevosita quyidagi uch holat uchun qayd etilgan lugʻatdan foydalanish (baʼzi oʻrinlarda qisman) oʻrinli sanaladi:

- soʻzlikning rus tilidagi variant bilan tanishganda qiyosiy holda tahlil uchun ushbu lugʻatdan foydalanish, taʼkidlash lozimki, ular oʻrtasidagi farqli holatlarni ochib berish bilan birgalikda oʻxshash jihatlarni ham aniqlashga koʻmak beradi;

- sof turkiy soʻzlar borasida olib boriladigan izlanishlar chogʻida a. qodiriy va s. rahmatiy qalamiga mansub bu lugʻat ayni foydali manbadir;

- keltirilgan lugʻatdan shevaga xos soʻzlarni ham aniqlashda foydalanish maqsadga muvofiq.







Bundan tashqari, Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asari ham o`zida Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk” asaridagi ba`zi jihatlari alohida to`xtalib o`rganilganligi bilan ahamiyatlidir[1]. Muallifning ta`kidlashicha, asardagi ba`zi so`zlar izohtalab hamda shunga mutanosib holda Fitrat tomonidan asar tarjimasida to`ldirilgan izohlar mavjud. Xususan, “Qarshi” leksemasiga quyidagicha ta`rif beriladi: *“Qarshi – saroy. “Devonu lug`ot”ga ko`ra, bu so`z turkchadir. “Muqaddimat ul-adab” ham bu so`zning mo`g`ulcha ekanini ko`rsatmaydir. Holbuki, ko`p kishilar buning mo`g`ulcha ekaniga ishonadilar[4]”*.

Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asari bugungi lug`atchiligimiz taraqqiyotida muhim o`rin tutadi. Sababi, ushbu lug`at orqali qator asarlar va ulardagi ba`zi leksemalardagi kamchiliklar bartaraf etilib, Fitrat tomonidan qo`shimcha izohlar qayd etilgan[8].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, jadid lug`atchiligining hozirgi zamon lug`atchiligining shakllanishidagi o`rni kattadir. So`zliklardagi izohlar, lug`at tuzish borasidagi jadid namoyandalari tomonidan qayd etilgan fikrlar, tartib, qonun-qoidalar bugun kun lug`atchiligi uchun poydevor vazifasini o`taydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. - Т., 1994.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли: 1-т (Москва: “Рус тили”, 1981. -631 б.), 2-т (Москва: “Рус тили”, 1981. -715 б.).
3. Бектемиров Ҳ., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. - Тошкент, 2002.
4. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. Тошкент, 1960-1963.
5. Чориев З. Тарих атамаларининг изоҳли луғати. Тошкент: Шарқ, 1999.
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: Фан, 2002.
7. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
8. [www.genhis.philol.ru](http://www.genhis.philol.ru)
9. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz)
10. [www.lingvo-online.ru](http://www.lingvo-online.ru)
11. [www.globalterminology.com](http://www.globalterminology.com)

